

O‘SMIR – BOLA HAM EMAS, KATTA ODAM HAM EMAS

Nodira Kalanova

Toshkent viloyati, Yangiyo‘l shahar
3-umumiy o‘rta ta’lim maktabi psixologi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘smirlik davri, o‘smirlarning hayot tarzi, suitsidga moyillik sabablari yuzasidan fikrlar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: Yosh davrlari, O‘smir, o‘smirlik davri, suitsid, stress, shaxs, xulq.

Psixologiya fanining muhim sohalaridan biri bo‘lmish yosh psixologiyasi fani bevosita inson psixologiyasining namoyon bo‘lishi va rivojlanishi turli yoshlarda qanday kechish xususiyatlari, qonuniyatlari, mexanizmlarini o‘rganadi. Psixologik xususiyatlarni namoyon bo‘lishining yosh xususiyatlari o‘rganilar ekan, shuni nazarda tutish kerakki, yosh psixologiyasida turli yosh davrlari bir-biridan sezilarli farqlanadi. Bular: chaqaloqlik, ilk bolalik, maktabgacha ta’lim yoshi, kichik maktab yoshi, o‘smirlik, ilk yoshlik, yoshlik, yetuklik va keksalik davrlaridir. [1,63] Biz bugun sizlar bilan o‘smirlik davri haqida fikrashamiz. Psixologiyada o‘smirlik davri o‘zgarish davri deb tavsiflanadi. O‘smirlik davri 11 yoshdan-17 yoshgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu davr bolalikdan balog‘at yoshiga o‘tish davri hisoblanadi. O‘smir – bola ham emas, katta odam ham emas. Unda yangi hissiyot uyg‘onadi ya’ni balog‘atga yetganlik hissi, balog‘at yoshining qadri, kattalar bilan aloqa qilish haqida yangi fikrlari bo‘lmaydi. Bu vaqtda o‘z tengdoshlari bilan aloqa qilish yetakchi o‘rinni egallaydi. Kattalardan ko‘ra, o‘z sinfdoshlari, do‘stlari qurshovida bo‘lish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘smirlik davridagi o‘zgarishlar, qiyinchiliklar nafaqat bolada ichki ziddiyatlarni keltirib chiqarishi bilan balki atrofida bilan ziddiyatli vaziyatlarni yuzaga kelishi bilan ham ajralib turadi. Bu hayot o‘smir uchun yetarli

darajada anglanilmagan, tushunarsiz, qo‘rqinchliligi bilan ajralib turadi. Yangi hayotga, balog‘at yoshi dunyosiga qadam qo‘yish bilan bog‘liq muammolarni o‘smir o‘zicha hal qilolmaydi shuningdek, atrofidagilarga ham tushuntirib bera olmaydi. Bir qarashda o‘smirlarning o‘z joniga qasd qilishi murakkabligini tushunish muhim hisoblanadi.

Shaxsda o‘z joniga qasd qilish, ko‘pincha, atrofda gilaridan o‘z vaqtida yordam kelmaganda sodir etiladi. Shuningdek, suitsidal urinish sodir etish orqali o‘g‘il yoki qiz bola o‘ziga e‘tibor qaratishga urinadi. Boshqa yoshdagilarga nisbatan, o‘smirlar bo‘layotgan voqealarni kuchli hissiyot, nafrat va ta’sirchanlik bilan qabul qiladilar. Boshqalarga, ya’ni o‘z joniga qasd qilayotganlarga taqlid qilishga urinish, suitsid uchun asos bo‘ladi.

Hissiyotlar shaxs faoliyatining muhim jabhasi sifatida insonning keng emotsional sohasini rang-barangligi, ko‘pqirraligi haqida hissiy ton (yunoncha *tonos-zo‘riqish*, *urg‘u berish* ma’nosini bildiradi), emotsiyalar (lotincha *emovere-qo‘zg‘atish*, *hayajonlanish* demakdir), affektlar (lotincha *affectus*-ruhiy hayajon, *shijoat*, *ehtiros* ma’nosini anglatadi), stress (inglizcha stress –zo‘riqish deganidir) va kayfiyat kabi tushunchalarda muayyan darajada tasavvur etishga imkon beradi. [2,118]

Quyida stress va suitsid tushunchalariga ta’rif taqdim etamiz.

Stress-inglizcha (stress) so‘zidan olingan bo‘lib, asabiylik, keskinlik degan ma’nolarni anglatadi. Asabiylik turli jismoniy va aqliy ishlar xaddan oshib ketishi, xavfli vaziyat tug‘ilgan paytlarda, zarur choralarni zudlik bilan topishga majbur bo‘lganda vujudga keladigan ruxiy holatdir.

Suitsid – qasddan o‘limga olib keluvchi shikast yetkazish (o‘z joniga qasd qilish). Bunday psixologik holatning paydo bo‘lishi, ko‘pincha, insonning jazavaga tushish, emotsional tuyg‘ularning yo‘qolishi, irodasizlik kabilarni o‘z ichiga oladi

Bu holatlar ahamiyat bergan bo‘lsangiz kuz va bahor oylaridan ko‘proq uchraydi.

Bolalar va o‘smirlar o‘rtasida suitsidni yuzaga keltiruvchi omillari

Bir qator tadqiqotchi olimlarning bolalar suitsidi muammolari doirasida o‘tkazilgan izlanishlari natijasiga ko‘ra, mazkur holat ko‘proq oilada tartibintizomning yo‘qligi sabab bo‘layotganligi aniqlangan. O‘smir yoshda suitsidal xulq-atvorni paydo bo‘lishiga oilaviy munosabatlar omili sezilarli darajada ta’sir qiladi.

Xulosa qilib, o‘smirlarga xos xususiyatlarni ajratib ko‘rsatamiz:

1. O‘smirlarda o‘lim haqida aniq tasavvur mavjud emas. Katta odam o‘lim – bu hayotning tugashi, deb tushunadi, o‘smir esa buni oxirigacha tushunmaydi. Ular uchun qaysidir darajada virtual o‘yin hisoblanadi.
2. O‘smir uchun eng muhimi 3 ta muhit: oila, maktab, tengdoshlar.
3. O‘smirning o‘z joniga qasd qilish sababi avvaliga arziyas, hatto tasodifiy bo‘lishi mumkin.
4. O‘smirda suitsidal xulq-atvorning shakllanishiga o‘smirlarga xos submadaniyat ta’sir ko‘rsatishi mumkin.
5. O‘smirda suitsid fikri va urinish bosqichi bo‘lmasligi mumkin.
6. O‘smir o‘zida nimalar bo‘layotganini, butun holatini yoki muammolarini tushuntirib berolmaydi.
7. O‘smir uchun, ko‘pincha, o‘limga nisbatan o‘sha voqelikda yashash qo‘rqinchli.
8. O‘smir suitsidi – bu ko‘p hollarda yordamga chaqiruv, o‘ziga e’tibor qaratish, o‘z muammolarini “kattalarga xos” echishga urinish bilan tavsiflanadi

Yuqorida bidirilgan fikrlardan shuni xulosa qilishimiz kerakki, bu davr murakkab o‘tish davri bo‘lib, har-bir ota-ona o‘z farzandi bilan do‘stona munosabatda bo‘lishi, fikrlarini lozim bo‘lganda qo‘llab-quvvatlashi, yoshiga mos tarzda muomala qilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shoumarov G‘.B. va boshqalar “Oila psixologiyasi”, T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2010
2. G‘oziyev E.G‘. “Psixologiya”, T.: “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008